



Рязанский  
государственный  
агротехнологический  
университет имени  
П.А. Костычева

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**



**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**  
**KONFERENSIYA**

**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**Namangan 2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR**  
**VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH**  
**INSTITUTI**

**“FAN VA INNOVATSIYA – 2023: RIVOJLANISH VA**  
**USTUVOR YO‘NALISHLARI”**

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami*  
*2-qism*

**20-22 oktabr, 2023-yil**

<b>ТЕХНИКА ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ ИЖОДКОРЛИК ДАРАЖАСИНИ АНИҚЛАШ МЕЗОНЛАРИ</b> <i>ўқитувчи Инамидинова Д.К.(НамМҚИ).....</i>	<b>408</b>
<b>МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ</b> <i>д.ф.п.н.н (PhD) К.Т. Уматалиева (докторант института развития профессионального образования).....</i>	<b>412</b>
<b>ЯНГИ АВЛОД АДАБИЁТЛАРИНИ ЯРАТИШ-ТАЪЛИМ СИФАТИ-НИНГ БОШ ОМИЛИ</b> ( <i>Назарий механика фани мисолида</i> ) <i>PhD.М.Б.Бойтемиров, доц,в.б.Ш.М.Исабоев, к. ўқт. А.М.Рахимов, талаба И.А.Абдухамитов (НамМҚИ).....</i>	<b>415</b>
<b>ЗАМОНАВИЙ ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДАГИ ИЛФОР ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ</b> <i>Проф. Ризаев Б.Ш.(НамМҚИ).....</i>	<b>420</b>
<b>TEKNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI ZAMONAVIY ISHLAB CHIQRISH KORXONALARI TALABLARI ASOSIDA TAYYORLASH</b> <i>pedagogika fanlari doktori, professor O'rinov U.A. mustaqil izlanuvchi Adizova S.Y.(BuxMTI).....</i>	<b>424</b>
<b>THE ROLE OF ENGLISH IN CHOOSING A PROFESSION</b> <i>assistant Domuladjanova Sh.I., professor Domuladjanov I.X. (FerPI).....</i>	<b>427</b>
<b>МОДЕРНИЗАЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ.</b> <i>старший преподаватель Мусаева Е.К.(НИСИ).....</i>	<b>429</b>
<b>INDIVIDUAL MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH JARAYONIDA RINOLALIK BOLALARDA TOVUSHLAR KAMCHILIGINI ZONDSIZ POSTANOVKA QILISH TEXNOLOGIYASI</b> <i>o'qituvchi Dehqonova M.G'. (CHDPU).....</i>	<b>431</b>
<b>MAXSUS KOMPETENSIYALARINI TALABALARDA SHAKLANTIRISH</b> <i>Egamberdiyev A.O.(NamMQ).....</i>	<b>434</b>
<b>MULTIMEDIALI ELEKTRON O'QUV MAJMUALARINI YARATISH TAMOYILLARI</b> <i>p.f.f.d., PhD Elmurodov J.(Oriental Universiteti).....</i>	<b>438</b>
<b>ДВА УЧИТЕЛЯ В ОДНОЙ ГРУППЕ: ДВОЙНАЯ ПРОБЛЕМА ИЛИ ДВОЙНОЙ УСПЕХ?</b> <i>докторант Жураева М.Б.(НамИСИ).....</i>	<b>439</b>
<b>TEKNIK FANLARNI O'QITISHDA MASOFAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR.</b> <i>kat.o`qt., I.B.Najmiddinov, dots.v.b Sh.M.Isaboyev, talaba J.F.Ergashxonov (NamMQI).....</i>	<b>443</b>
<b>KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA RAHBAR BOSHQARUV FAOLIYATIDA SAMARALI MULOQOT QOBILIYATI SIFATIDA</b> <i>doktorant Umarova N.X.(A.Avloniy nomidagi PKRYaMO 'MTI).....</i>	<b>448</b>

сообщество, его полноценное развитие как материально-технического, информационного, финансово-экономического и социального комплекса. Понятие «качество образования» представляет собой совокупность следующих факторов: качество образовательных продуктов, качество профессорско-преподавательского состава, качество студенческого контингента, качество учебно-методического обеспечения, качество материально-технической и информационной базы, качество управления образовательной деятельностью.

**Обсуждение.** Современное профессиональное образование устойчиво ориентировано на рынок труда и потребности социально-экономического развития страны, региона, что требует от его воспитанников социальной и профессиональной мобильности, конкурентоспособности, инновационного мышления. Современный профессионал должен быть способен к самостоятельной познавательной деятельности в течение всей жизни должен быть функционально грамотным человеком, в первую очередь в социально-трудовой сфере, хорошо ориентироваться в профессиональных нормах и этике, корпоративной культуре, обладать навыками самоорганизации. Воспитание личности профессионала связано с развитием его способности мыслить глобально и проблемно, а действовать конкретно, ориентироваться на решение в первую очередь реальных инновационных задач. Выпускник профессиональной школы должен решать проблемы разного уровня сложности, быть готовым к постоянному профессиональному самосовершенствованию. Способность к решению конкретных проблем современного мира зависит не столько от обладания личностью фиксированным объёмом знания, сколько от уровня овладения соответствующими компетенциями.

**Заключение.** Таким образом, решение основных аспектов модернизации профессионального образования позволит перейти образованию на более высокий уровень, обеспечивая создание устойчивого механизма его развития.

## **INDIVIDUAL MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH JARAYONIDA RINOLALIK BOLALARDA TOVUSHLAR KAMCHILIGINI ZONDSIZ POSTANOVKA QILISH TEXNOLOGIYASI**

M.G'.Dehqonova (CHDPU)

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о технологии индивидуального коррекционного обучения, которая используется для эффективной организации коррекционной подготовки детей с особыми потребностями.

**Ключевые слова:** коррекция, личность, технология, позиция, обучение.

**Abstract:** This article provides information about the technology of individual correctional education, which is used to effectively organize correctional training for children with special needs.

**Key words:** correction, individual, technology, position, training.

Rinolaliyada tovushlarni korreksiyalashda foydalaniladigan usul vosita va mashqlar individual yondoshilgan holda tanlanadi. Biroq qo'pol organik nuqsonlar to'g'ri artikulyatsiyaga erishishni qiyinlashtiradi. Labdagi chandiqlar, uning

harakatini cheklaydi, ochiq prikus, progeniya, prognatiya, ortodontik apparatni uzoq vaqt toliqishi lab va til oldi tovushlarini nutqga qo'yishni bir oz qiyinlashtiradi.

**«P» tovushini bir necha usulda nutqga qo'yish mumkin:**

- Bolaga yo'naltirilgan havo oqimi chiqarish vaqtida lablarini bir-biriga urish taklif qilinadi, bunda shivirlagan pa-pa-pa bo'g'ini hosil bo'ladi. Lablarni hullash bu mashqlarni bir oz yengillashtiradi.

- Bolaga lunjlarini shishirish taklif etiladi va ikkala kafti bilan shu vaqt o'zida lunjlariga uriladi. Og'izdan tishlarni orasidan partillab havo oqimi chiqadi. Keyincha bu harakatlar og'iz bo'shlig'idagi hovoning hajmini kamaytirib qo'llarning ishtirokisiz bajariladi. Bunda bola lablari bilan «tuflaganiga» o'xshagan harakat qiladi va «p» tovushi hosil bo'ladi.

- Burun qanotlari barmoqlar yordamida qisiladi (havoning burun orqali chiqib ketmasligi uchun) va ikkinchi usul amalga oshiriladi. Keyinchalik bu mashq burun qanotlari qisilmasdan amalga oshiriladi.

Birinchi usul orqali hosil qilingan «p» tovushi, (ikkita qolgan usullardan farqli ravishda) tovush talaffuzidan so'ng, boshqa tovush ta-laffuziga o'tish oson kechadi.

Tadqiqotchilarni aytishicha, rinolaliyada «t» tovushi talaffuzida ovozni erkin chiqishi kuzatiladi. «T» tovushini hosil qilish uchun lablarni kulgi holatiga keltirib, til uchini tishlar orasidan bir oz tashqariga chiqarib «tuflash»ga o'xshash harakat qilish kerak.

Yangi fonemalarni nutqda bor bo'lgan tovushlardan hosil qilish maqsadga muvofiq, chunki bunda tovush hosil bo'lishi zo'riqishsiz kechadi va bo'g'in, so'zlarda oson mustahkamlandi,

Rinolaliyada «k» tovushi umuman bo'lmaydi, yoki boshqa tovush bilan almashtiriladi. «K» tovushi asosan ta-ta-ta bo'g'inlari talaffuz qilish bilan bir vaqtda til uchi shpatel yordamida bosilib bir oz ichkariga itariladi. Bunda til orqaga surilgan sari «ta» bo'g'ini avval -tya, so'ng -kya va nihoyat -ka bo'g'iniga aylanadi. Keyinchalik mexanik yordamdan butunlay voz kechadi.

Tug'ma tanglay yoriqliklarida frikativ tovushlar ko'p hollarda faringial usul orqali shakllantiriladi. Bunda og'iz orqali chiqarilayotgan yo'naltirilgan havo oqimi alohida o'rin tutadi. Biroq burun orqali havo chiqishi hollarida hali tovushlarni korreksiyalash mumkin, lekin bunda tovush kuchsiz chiqadi.

*A.B.Ippalitova* (1955) fikricha, frikativ undoshlardan «f» tovushini nutqga qo'yish oson kechadi. Buning uchun bemor instruksiya asosida yoki mexanik usul yordamida pastki labni tepa tishlarga yaqinlashtiradi va unga puflaydi.

«S» tovushi odatda an'anaviy usullar yordamida korreksiyalanadi. Bunda bemor paxtaga puflash, til uchiga puflashga o'rgatiladi.

Sirg'aluvchi tovushlarni to'g'rilashdagi qiyinchiliklar ularning murakkab artikulyatsiya holatiga bog'liq. Tishlarning bir-biriga yaqinlashuvi quruv nazarotini qiyinlashtiradi. Sirg'aluvchilarning artikulyatsiyasining barcha tarkibiy qismini alohida-alohida o'rgatish kerak (lab, til holatlari, havo oqimining yo'nalishi va x.k.),

«SH» tovushini nutqga qo'yishda tilni «kosacha» shaklida tepaga ko'tarishiga o'rgatishga uzoq vaqt ketadi. Shuningdek tilni og'iz ichida «kosacha» shakli keltirish bilan bir vaqtda havo oqimini tepaga yo'naltirish qiyinchilik bilan kechadi. Bolalar

havo oqimini tepaga yoʻnaltirish oʻrniga koʻpincha burun orqali nafas chiqaradilar.

Agar bola taqlid orqali «sh» tovushini quyi artikulyatsiyasiga erishsa, unda bu tovush nutqga kiritiladi va mustahkamlanadi.

«X» tovushi odatda qiyinchiliksiz nutqga qoʻyiladi. Bunda «x» tovushi chuqur nafas chiqarishda stimulyatsiya qilinadi yoki «k» tovushini uzoq, choʻziq talaffuz qilish natijasida yuzaga keladi.

«j» tovushi «i» unlisini birikishi natijasida yuzaga keladi. Masalan «yana» soʻzi oʻrniga «iana» va x.k. Rinolaliyada bu fonemaning yoʻqligi 5 yoshdan kichik boʻlgan bolalarda kuzatiladi.

Rinolaliyada «ya» tovushi koʻpchilik hollarida saqlangan boʻladi. Bu tovushning nutqda yoʻqligi yoki boshqa bir tovush bilan almashtirilsa, unda «a» unlisidan hosil qilish mumkin. «A» unlisini talaffuz qilinadi va shu zaxotiyek tilning keng uchi yengilgina tishlanadi. Shunda aniq «ya» hosil boʻladi.

Vibratsion «r» tovushini nutqga qoʻyish juda qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Bunday holda yoʻnaltirilgan havo oqimi yetarli kuchga ega boʻlmay, til uchida vibratsiya hosil qila olmaydi. Bunda havo oqimining kuchi tanglay pardasining uzunligi va avtomatlashtirish darajasiga ham bogʻliq boʻladi. Burun qanotlari qisilgan holda havo oqimning burun boʻshligʻiga oʻtishi til uchida vibratsiya hosil boʻlishiga imkon yaratishi mumkin. Yumshoq tanglay harakatning kordinatsialanmagan sekinlashuvi nutq jarayonida titravchi «r» tovushini talaffuz qilishga yoʻl qoʻymaydi (tovushni alohida talaffuzi erishganida ham).

Bunday holda bir urinishli yoki takroriy tovushga oʻrgatiladi va u nutqga kiritiladi. «R» tovushni korreksiyasi anʼanaviy usullarga koʻra, «z» va «j» tovushidan hosil qilinadi.

Rinolaliyada «m» va «n» tovushini buzilishi ham kuzatiladi. Bu buzi-lishini ikki xil koʻrinishda boʻladi:

Vokalizatsiya bilan almashtiriladi yoki operatsiyadan soʻng burunli ohangini yoʻqotib, bolani bu tovushni toʻliq ogʻiz rezonanida talaffuz etadi.

Buning uchun bolaga lablarini birlashtirib, tishlarini bir oz bir-biridan uzoqlashtirib «a» tovushini uzoq vaqt choʻzib talaffuz qilish buyuriladi. Bu yoʻl bilan «m» tovushi nutqga qoʻyilgach, shu tovushni tilni tishning orasida qisib talaffuz qilish buyuriladi. Bunda aniq «m» tovushi eshitiladi.

Rinolaliyada odatda tovushning talaffuzini toʻgʻrilash jarangsiz undoshdan boshlanadi. Ovozsiz ishlash koʻp holda tovushni tayyorlash va stimulyatsiya qilish, uni nomini aytmay turib, tovush talaffuzida uchraydigan patalogik taʼsirdan qutilish imkonini beradi.

«B», «v», «g», «d», «j» tovushini nutqga qoʻyish «a» unlisi orqali amalga oshiriladi. «A» unlisi jarangli undosh fonamalarni hosil qilishda foydalaniladi, chunki katta ochilgan ogʻiz oʻzini kuzatish uchun qulay va boʻshashgan lab muskullari artikulyatsiyaga xalaqit bermaydi. «D» tovushini talaffuz qilishda, tashqariga chiqarilgan tilga tepa tishni tekizish tavsiya etiladi.

«J» tovushi ustida ish olib borilganda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- Bola «a» tovushini choʻzish bilan bir vaqtda tilni «kosacha» holatiga keltiriladi;

- Bola «a» tovushini choʻzish bilan bir vaqtda tilni «kosacha» holatiga

keltiriladi va tishni bir-biriga yaqinlashtirib, lablarni doira holatiga keltiradi.

«J» tovushni «r» tovushidan hosil qilish ham mumkin.

«G» tovushi mexanik usul yordamida «k» tovushiga o'xshab «d» tovushidan hosil qilinadi.

Sirg'aluvchi «z» tovushi «e» tovushidan hosil qilinadi. Buning uchun «e» tovushi talaffuz qilinadi va shu vaqtning o'zida til tashqariga chiqariladi va tishlar bir-biriga yaqinlashtiriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. M.Y. Ayupova "Logopediya". Toshkent 2007 yil, 463 b.
2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.
3. Qodirova F.U. "Texnologiya 4". Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
4. Qodirova F.U. "Texnologiya 3". Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
5. Achilova S.J. Dislaliya. Dizatriya // O'quv qo'llanma, Toshkent 2021, 140 b.
6. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.
7. Dehqanova M.G., Tag'onova G. Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o'ziga xos xatoliklarni paydo bo'lish mexanizmi // "Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot va innovatsiyalar" mavzusidagi Respublika miqyosida o'tkaziladigan ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi, 2022., 405-407 b.

## MAXSUS KOMPETENSIYALARINI TALABALARDA SHAKLANTIRISH

A.O.Egamberdiyev (NamMQI)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak quruvchi muhandis talabalarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishning mazmuni va mohiyatini tashkil etish xususida to'htalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tizimli, kompetentlig, kasbiy, quruvchi muhandislar, kompetensiya.

Pedagogik jarayonlarni ilmiy tadqiq etishning zamonaviy yetakchi yo'nalishlaridan biri tizimli yondashuvdir. U pedagogik hodisa va jarayonlarni ularning o'zaro bog'liqligi va uzluksizligida har tomonlama tahlil qilish va ko'rib chiqish zarurligi haqidagi g'oyaga asoslanadi. Keling, uning mohiyatini qisqacha ochib beraylik.

Pedagogik hodisalarni tahlil qilishga tizimli yondashish V.P.Bespalko [50, 51], N.V.Kuzmina [91], Yu.A.Kustov [92], N.F.Talizina [109] va boshqalarning ishlarida ochib berilgan. V.P.Bespalko shunday yozadi: "Pedagogik nazariyaning yangi